

GLOBALLASHUV JARAVONIDA SHASIY HAYOT DAXLSIZLIGINING KONSTITUTSIVAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Baxromov Behruz Alisherovich

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-kurs talabasi

E-mail: behruzboxromovvvvvv@gmail.com

Annotatsiya: XXI asr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi - raqamli globallashuv davri deb hisoblanmoqda. Bunday globallashuv sharoitida ma'lumot olish va tarqatish erkinligidan ommaviy foydalanish natijasida ma'lum bir shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan axborotlarni olib uning o'ziga qarshi foydalanish kabi salbiy tendensiyalar dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu bois davlatlarning konstitutsiyaviy tizimida shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash masalasi hayotiy zaruratga aylandi. Ushbu maqolada shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari hamda nazariy jihatlarini, uni qo'llash bilan bog'liq munosabatlarning aktualligi shuningdek, xalqaro qonunchilik bilan milliy qonunchilikdagi o'xshashliklar va kamchiliklar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, Shaxsga doir ma'lumotlar, Konstitutsiyaviy huquq, Raqamlashtirish, Kiberxavfsizlik, Transchegaraviy ma'lumotlar, Sun'iy intellekt va huquq, GDPR, Suverenitet va global standartlar.

Annotation: The 21st century is considered a new stage in human development – the era of digital globalization. In this context, the widespread use of the freedom to obtain and disseminate information has led to negative trends, such as the collection of personal data and its use against the individual. Therefore, ensuring the inviolability of personal data has become a vital necessity within the constitutional systems of states. This article analyzes the constitutional and legal foundations of personal data protection, its theoretical aspects, the relevance of relations associated with its enforcement, as well as a comparative analysis of similarities and shortcomings between international and national legislation.

Keywords: Right to privacy, Personal data, Constitutional law, Digitalization, Cybersecurity, Cross-border data, Artificial intelligence and law, GDPR, Sovereignty, Global standards.

Аннотация: XXI век считается новым этапом развития человечества – эпохой цифровой глобализации. В таких условиях широкое использование свободы получения и распространения информации привело к негативным тенденциям, таким как сбор личных данных и их использование против самого человека. Поэтому обеспечение неприкосновенности персональных данных стало жизненно необходимой задачей в конституционных системах государств. В данной статье анализируются конституционно-правовые основы защиты

персональных данных, их теоретические аспекты, актуальность отношений, связанных с их обеспечением, а также проводится сравнительный анализ сходств и недостатков международного и национального законодательства.

Ключевые слова: Право на неприкосновенность частной жизни, Персональные данные, Конституционное право, Цифровизация, Кибербезопасность, Трансграничные данные, Искусственный интеллект и право, GDPR, Суверенитет, Глобальные стандарты.

Inson tug'ilishi bilan unda ma'lum bir huquqlar va majburiyatlar vujudga keladi. Ushbu huquqlar davlat tomonidan tan olinishi va muhofaza etilishining yuridik belgisi bu uning oliy qonuni bo'lgan konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilganligi faktidir. Har bir davlat konstitutsiyasidagi inson huquqlariga oid erkinliklar ko'lamini tahlil qilish orqali ushbu davlatda inson huquqlariga munosabat hamda fuqarolarning bunday tabiiy huquqlari davlat tomonidan qay darajada himoya qilinishi haqida dastlabki xulosaga ega bo'lish mumkin. Bevosita shaxsiy hayot daxlsizligi tushunchasiga keladigan bo'lsak, avvalo, shaxsiy hayot hamda daxlsizlik atamalarini ajratgan holda alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shaxsiy hayot deganda insonning o'z shaxsiy hayotiga ega bo'lishi va unga hech kim aralasha olmasligidan iborat tabiiy huquq namoyon bo'ladi. Daxlsizlik atamasining mohiyatini esa, bunday huquqning tan olinishi va muhofaza etilishida ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 31-moddasiga muvofiq har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.¹ Bundan anglashiladiki, shaxsiy hayot deganda uning hayoti, shaxsiy va oilaviy sirlari, sha'ni, qadr-qimmat, yozishmalari, shuningdek telefon, pochta, elektron so'zlashuvlari va hokazolarni o'z ichiga oluvchi, hech kimga uning rozilgisiz oshkor qilib bo'lmaydigan ma'lumotlarga ega bo'lish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda shaxsiy hayotga ega bo'lish shaxsga doir ma'lumotlarga ega bo'lishni ham anglatadi. Bunday ma'lumotlarning daxlsizligi esa, ularning sir saqlanishi, ommaga oshkor bo'lganida ularning yo'q qilishni talab qilish huquqi hisoblanadi. Demak, inson huquqlarining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ushbu huquqning konstitutsiyaviy mohiyati bu uning majburlov kuchiga ega bo'lgan oliy hokimiyat, ya'ni, davlat tomonidan tan olinishi va muhofaza qilinishidir. Shaxsga doir ma'lumotlarning

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-modda. T.: Adliya vazirligi, 2023. 31-modda.

daxlsizligini kafolatlovchi huquqiy asoslardan yana biri bu O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunga ko'ra, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotlar shaxsga doir ma'lumotlar sanaladi.² Bundan kelib chiqadiki, shaxsga doir ma'lumotlar shaxsiy hayot daxlsizligining muhim ajralmas qismi bo'lib, inson huquqlari bilan bog'liq konstitutsiyaviy normalar shaxsiy hayotga ega ega bo'lishning huquqiy (yuridik) kafolatidir.

Masalani tarixiy kontekstdan kelib chiqib nazariy tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsiy hayot daxlsizligini e'tirof etib, uni inson huquqlarini to'la-to'kis ta'minlovchi elementlardan biri sifatida talqin qiluvchi manbalar tarixan shakllanib kelgan. Bunday asoslarga misol qilib Angliyada qabul qilingan 1215-yilgi "Erkinlikning Buyuk Xartiyasi", 1678-yilgi "Xabeus Korpus" instituti va hokazolarni keltirish mumkin. Yuqoridagilarga o'xshash tarixan Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan qonunlar, xartiyalar, pretsedentlar shaxsiy hayot daxlsizligining inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq jarayon ekanligini anglashda va keyinchalik mamlakatlar o'z konstitutsiyalarida bunday huquqlarni e'tirof etishlarida muhim fundamental asos bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham qator chet el olimlari va milliy tadqiqotchilarimiz shaxsiy hayot daxlsizligining mohiyati ochib berishda nazariy tahlillar olib borishmoqda. Jumladan, Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasi kata o'qituvchisi F. Madiyev shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, uning yuridik tabiatini uchga bo'lgan:

Konstitutsiyaviy kafolatlar shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilishga ko'maklashadigan muayyan konstitutsiyaviy vositalar va usullarni o'z ichiga olishi;

Konstitutsiyaviy kafolatlar shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashda asosiy hisoblanishi, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va jamoatchilik kafolatlari ikkinchi darajali bo'lishi;

Konstitutsiyaviy kafolatlarda belgilangan qoidalar davlat tomonidan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilish obyekti sifatida mustahkamlanishi.³

Demak, yuqoridagilarga tayanib aytish mumkinki, konstitutsiyada shaxsiy hayot daxlsizligi qanday vosita va usullar orqali himoya qilinishi, bu borada davlatning bosh qonuni asosiy kafolat hisoblanishi hamda shu kafolatlarning qoidalari daxlsizlikni himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarda obyekt sifatida namoyon bo'lishi mustahkamlab qo'yilsagina shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi vujudga keladi.

Bunga zid ravishda xorijiy tadqiqotchilar Oliver Diggelmann va Maria Nicole Cleis ning qarashlari tubdan farq qiladi. Ular shaxsiy hayot daxlsizligi qanday qilib

² O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun". Toshkent: O'zbekiston, 2019, 4-modda.

³ Мадиев Ф. Х. (2023). Шaxсий хаёт дахлсизлиги ҳуқуқининг конституциявий кафолатларини генезиси. Zenodo. Стр-11.

inson huquqiga aylanganligini tadqiq qilish maqsadida shu mavzuda ilmiy izlanish olib borishgan va natijada kutilmagan xulosaga kelishgan. Gap shundaki, ular tadqiqot boshida shaxsiy hayotni himoya qilish huquqining tarixini diqqat bilan o'rganish orqali bunday huquq insoniyat tomonidan ongli ravishda inson huquqlarining bir qismi sifatida shakllanganib kelganligiga ishonch hosil qilishga umid qilishgan. Ammo, keyinchalik UDHR (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi), ICCPR (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi konvensiya), ECHR (Inson huquqlari Yevropa konvensiyasi) da mustahkamlangan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining loyihalashtirish tarixini o'rganishganida ushbu huquq kelib chiqishining hech qanday asosi mavjud bo'lmagan. Ya'ni, o'sha davrda hech bir milliy konstitutsiyalarda bunday huquq mavjud bo'lmagan, umumiy muhokamalar o'tkazilmagan, izohlar berilmagan. Shunday qilib, shaxsiy hayotni himoya qilish zarurligi bo'yicha kelishilmagan va noaniq konsensus tahririy ishlar uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilgan.⁴ Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, F. Madiyevning fikricha, shaxsiy hayot daxlsizligi instituti tarixan shakllangan bo'lib, mamlakatlar konstitutsiyasi darajasida bo'lmasada, xartiyalar, shartnomalar, tarixiy pretsedentlarda o'z aksini topgan va shu orqali bugungi kunda bunday huquq inson huquqlarining bir qismi sifatida e'tirof etilishiga asos vazifasini bajargan. Oliver Diggelmann va Maria Nicole Cleis esa aynan konstitutsiyaviy asoslarga tayanib, ushbu huquq yaqin o'tmishgacha hech bir konstitutsiyada belgilanmaganligi va faqatgina tasodif tufayli UDHR, ICCPR va ECHR da paydo bo'lganidan so'nggina bunday huquq xalqaro miqyosda inson huquqlarining yangi shaklini vujudga keltirganini aytishadi. Ya'ni, yuqoridagi shartnomalar mualliflari ularga yangi atamani kiritishga qaror qilganlarida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining kelajakdagi, xususan, ECHR doirasida potensial rivojlanishini oldindan bashorat qila olishmagan. Umuman olganda, olimlarning xilma-xil tadqiqotlari va fikrlari insonda faktlarni tahlil qilish hamda kengroq ma'lumot olish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichi bo'lmish XXI asrda, ya'ni, globallashuv asrida raqamli texnologiyalarning tez suratda rivojlanishi jamiyat oldida shaxsiy hayot daxlsizligini mustahkam himoya qilish masalasini muntazam kun tartibiga olib chiqmoqda. Muammo shundan iboratki, internet, sun'iy intellekt, "big data" singari texnologiyalar orqali muayyan shaxsga tegishli bo'lgan, boshqalarga oshkor qilinishi o'sha shaxsga xavf tug'diradigan ma'lumotlar tez va oson olinishi va tarqatilishi barchada tahlika uyg'otmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan xavflarni to'g'ri baholash uchun amaliyotda yuzaga kelgan mashhur keyslarni ko'rib chiqish to'g'ri bo'ladi. Shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishiga oid mashhur misollardan biri bu genetic test xizmatlarini ko'rsatuvchi

⁴ Oliver Diggelmann and Maria Nicole Cleis. How the Right to Privacy Became a Human Right. Human Rights Law Review, 2014, 14, page 457.

“23andMe” kompaniyasi bilan yuzaga kelgan kiberjinoyatdir. 2023-yil oktyabr oyi boshida “23andMe” kompaniyasi Golem nomi bilan tanilgan kiberjinoyatchi tomonidan amalga oshirilgan ma’lumotlar buzilishi (data breach) qurboniga aylanadi. Golem “Breach Forums” nomli xakerlar forumida 4 milliondan ortiq foydalanuvchining ma’lumotlarini oshkor qilganini da’vo qildi. Ushbu kiberhujumning isboti sifatida Golem kelib chiqishi yahudiylardan bo’lgan 1 million foydalanuvchi hamda xitoylik 100 000 foydalanuvchining ma’lumotlarini e’lon qilib, ushbu ma’lumotlarni har bir foydalanuvchi uchun 1 dan 10 000 AQSH dollarigacha narxda sotib olishni taklif qilgan.⁵ Kiberjinoyat natijasida kompaniya foydalanuvchilariga tegishli bo’lgan ularning ismlari, jinsi, tug’ilgan yili, genetic nasl-nasab natijalari kabi hech kimga oshkor qilib bo’lmaydigan shaxsga doir ma’lumotlarga tajovuz qilingan.

Yuqoridagi keysdan kelib chiqib, shaxsiy hayot daxlsizligining toptalishi mahalliy yoki mintaqaviy muammolar qatoridan chiqib, balki xalqaro miqyosida tahdid tug’diruvchi delemma sifatida namoyon bo’layotganligi haqida xulosa qilish mumkin. Afsuski, milliy konstitutsiyalarda belgilangan normalar shiddat bilan o’sayotgan texnologiyalar natijasida yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatarlarni tartibga solishga ojizlik qiladi. Bundan tashqari, shaxsiy hayot daxlsizligiga tajovuz nafaqat sog’liqqa oid ma’lumotlarning o’g’irlanishida, balki boshqa sohalarida ham ko’zga tashlanmoqda. Masalan, foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini nishonga olish orqali shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, yuz tanish texnologiyalari orqali olingan biometrik ma’lumotlarni o’g’irlash, onlayn moliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi ilovalarga hujum uyushtirib, foydalanuvchilarning hisob raqamlari, tranzaksiyalar tarixi, shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlarini qo’lga kiritish va hokazolarni aytilish mumkin. Bu kabi buzilishlarning natijalari fuqarolarning shaxsiy hayoti uchun tasavvur qilib bo’lmas oqibatlarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Shunday ekan, muammoga kompleks yondashib, tez rivojlanayotgan raqamli dunyoda shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar xavfsizligini yanada chuqurroq himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Amerikalik tadqiqotchi Colin J. Bennett turli demokratik davlatlar boshqa hukumatlarning o’z fuqarolarini shaxsiy hayotiga ortib borayotgan aralashuvidan qanday himoya qilganligi haqida o’z qarashlarini ilgari surgan. U 1960-yillardan 1980-yillarning o’rtalarigacha Buyuk Britaniya, Shvetsiya, G’arbiy Germaniya va AQSH da shaxsiy hayot daxlsizligiga oid xavotirlar hamda siyosat qanday rivojlanganini taqqoslaydi. Bennett axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli mamlakatlarda o’xshash siyosiy natijalar vujudga kelganini qayd etadi. To’rtta mamlakat bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar har bir mamlakatning ma’lumotlarni himoya qilish qonunlari qanday

⁵ Holthouse, R., Owens, S., & Bhunia, S. (2025). The 23andMe data breach: Analyzing credential stuffing attacks, security vulnerabilities, and mitigation strategies. arXiv preprint arXiv:2502.04303. Page-1.

shakllanganini ko'rsatadi. U siyosiy vositalar (ya'ni qonunlar va siyosiy mexanizmlar)dagi farqlarni madaniy tafovutlar va turli siyosiy uslublar bilan izohlaydi.⁶ Ya'ni, ushbu mamlakatlarda shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish zarurati ularning qonunchilik tizimini yaqinlashishiga olib kelgan. Faqatgina ushbu qonunlarni qo'llash jarayonida vujudga keladigan siyosiy vositalardagina ayrim farqlar ko'zga tashlangan xolos. Bundan xulosa qilish mumkinki, davlatlar shaxsiy hayot daxlsizligiga umumiy xavf sifatida yondashib, birgalikda harakat qilishsa "yaqinlashuv nazariyasi" asosida dinamik jarayon sodir bo'ladi. Ya'ni, vaqt o'tishi bilan ushbu mamlakatlar qonunchiligi, konstitutsiyaviy tizimi va hattoki, siyosati ham bir biriga o'xshash shaklga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida mavjud xavf-xatarlarga qarshi turishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tadqiq qilishda xalqaro shartnomalar va xalqaro standartlarda mustahkamlangan normalar, prinsiplarni o'rganish, ularning mohiyatini anglash, milliy qonunchilikdagi o'xshash va farqli jihatlarni qiyosiy taqqoslash tadqiqot obyekti bo'lishi kerak. Xususan, BMTning 1948-yilda qabul qilingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 12-moddasida hech kim insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishi, insonning uy-joyi daxlsizligiga, uning xatlaridagi sirlarga, erki, or-nomusi va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilishi mumkin emas. Har bir inson ana shunday aralashish yoki shunday tajovuzdan qonun yo'li bilan himoyalaniş huquqiga egadir.⁷ Ushbu moddaning maqsadi bevosita O'zbekiston konstitutsiyasining 31-moddasi bilan hamohang deyish mumkin. Sababi ikkala normada ham daxlsizlik obyekti fuqarolarning shaxsiy hayoti ekanligini ko'rish mumkin. Farqli jihati shuki, UDHR 12-moddasida nazarda tutilgan xatlar nimalardan iborat bo'shi mumkinligiga O'zbekiston konstitutsiyasida kengroq yondashilgan. Unga ko'ra, yozishmalar, telefon so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar UDHR da mustahkamlangan xatlarga misol bo'lishi mumkin.⁸ Umuman olganda har ikkala normadan anglashiladigan asosiy g'oya shaxsiy hayot daxlsizligini asosiy inson huquqlaridan biri sifatida etirof etilishidir. Oilaviy hayot, uy-joy va xat yozishmalari daxlsizligi bugungi zamonaviy kontekstda bunday ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tarqatishdan himoyalaniş huquqini anglatadi.

Bundan tashqari, 1966-yilgi Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar To'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida ham hech kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o'zining uy-joyi yoki yozishmalari siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashilishiga yoki uning or nomusi va sha'niga g'ayriqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali

⁶ Colin J. Bennett. *Regulating Privacy: Data Protection and Public Policy in Europe and the United States*. Ithaca: Cornell University Press, 1992.

⁷ United Nations. *Universal Declaration of Human Rights*, 1948, Article 12.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-modda. T.: Adliya vazirligi, 2023. 31-modda.

himoya etilish huquqiga ega.⁹ Ushbu modda ham shaxsiy hayotga aralashuvlardan himoya huquqini kafolatlash bilan birga bunday ma'lumotlar daxlsizligini xalqaro miqyosda muhofaza etilishining asosiy prinsiplarini belgilaydi. Shaxsiy hayot daxlsizligini o'rganishda 1950-yilgi Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi alohida muhim o'rin tutadi. Ushbu konvensiyaning ahamiyati shundaki, qonunning 8-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi va davlat organlari tomonidan shaxsiy hayotga aralashishga ruxsat beruvchi holatlar chegarasi aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, ushbu huquqqa davlat organlari tomonidan aralashuv faqat qonunga muvofiq, demokratik jamiyat talablari asosida va quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin: milliy xavfsizlik, jamoat xavfsizligi yoki mamlakatning iqtisodiy farovonligi, tartibsizlik yoki jinoyatlarning oldini olish, sog'liqni yoki axloqni himoya qilish yoki boshqalarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish.¹⁰

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi davlatlarini shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi sohasida erishgan yutuqlarining asosiy manbasi bu 2016-yilda qabul qilinib, 2018-yilda kuchga kirgan GDPR (General Data Protection Regulation) tartibi bo'lib, Yevropa hududida sodir bo'ladigan huquqbuzarliklar aynan shu qonun orqali tartibga solinadi. GDPR ga O'zbekiston qonunchiligi nuqtai nazaridan muqobil analog bo'lishi mumkin bo'lgan manba bu 2019-yil 2-iyulda kuchga kirgan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonunni hisoblanadi. GDPR bo'yicha shaxsga doir ma'lumotlarni olish, to'plash, tarqatish uchun shaxsning roziligini olish majburiy hisoblanadi. Bu borada GDPR standartlari aniq va qat'iy hisoblanadi.¹¹ O'zbekiston qonunchiligida ham shaxs roziligi asosiy prinsip sifatida mustahkamlangan bo'lishiga qaramay, davlat aralashuvining aniq chegarasi ECHR singari aniq belgilab qo'yilmaganligi tufayli kazuistik holatlar kelib chiqmoqda. Shuningdek, GDPR ga ko'ra Yevropa hududida ishlab chiqiladigan tizim va xizmatlar xavfsizlik prinsiplariga asoslanishi shart. O'zbekistonda esa, bunday shartlar konstitutsiya va qonunchilik darajasida amaliyotga hali to'liq tatbiq etilmagan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdid soluvchi jiddiy holatlar hali ko'zga tashlanmaganligi yoki manfaatdor tomonlar buning oqibatlarini to'liq anglab yetmaganligi sababli qat'iy normalar ishlab chiqishga zarurat biroz kechroq paydo bo'lmoqda. Shunga qaramay, ushbu sohaning global darajada dolzarbligi oshib borar ekan, har bir mamlakat bunday tahdidlarga qarshi turish maqsadida zaruriy mexanizmlarni ishlab chiqishga harakat qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁹ United Nations. *International Covenant on Civil and Political Rights*, 1966, Article 17.

¹⁰ Council of Europe. *European Convention on Human Rights*, 1950, Article 8.

¹¹ European Union. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation). Official Journal of the European Union, L119, 4 May 2016.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-modda. T.: Adliya vazirligi, 2023. 31-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun”. Toshkent: O‘zbekiston, 2019, 4-modda.
3. Мадиев Ф. Х. (2023). Шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳуқуқининг конституциявий кафолатларини генизиси. Zenodo. Стр-11.
4. Oliver Diggelmann and Maria Nicole Cleis. How the Right to Privacy Became a Human Right. Human Rights Law Review, 2014, 14, page 457.
5. Holthouse, R., Owens, S., & Bhunia, S. (2025). The 23andMe data breach: Analyzing credential stuffing attacks, security vulnerabilities, and mitigation strategies. arXiv preprint arXiv:2502.04303. Page-1.
6. United Nations. Universal Declaration of Human Rights, 1948, Article 12.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-modda. T.: Adliya vazirligi, 2023. 31-modda.
8. United Nations. International Covenant on Civil and Political Rights, 1966, Article 17.
9. Council of Europe. European Convention on Human Rights, 1950, Article 8.
10. European Union. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation). Official Journal of the European Union, L119, 4 May 2016.